

# “Qizilqum fosforit kompleksi” MChJda milliylik bayrami

// 17.04.2024

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/qizilqum-fosforit-kompleksi-mchjda-milliylik-bayrami>



Ayni kunlarda mamlakatimiz bo'ylab “Xon atlas” festivali o'tkazilmoqda. Ushbu festival doirasida “Qizilqum fosforit kompleksi” MChJda faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar o'rtasida “Milliy qadriyatlarimiz – millat ko'zgidir” mavzusida chorlov tashkil etildi.



O'zbek xalqining asrluk o'tmish madaniyati, urf-odat va an'analari, didi, estetik qarashlari shuningdek, tashqi qiyofa, libos borasida o'ziga xos xususiyatlarini namoyish etish maqsadida tashkil etilgan festivalda korxonada xotin-qizlari ham katta qiziqish va faollik bilan ishtirok etishdi.



**“Qizilqum fosforit kompleksi” MChJ Matbuot xizmati**